KICHIK BIZNESNING TARMOQ VA SOHALAR BO‘YICHA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

N.A.Numonjonova
Andijon davlat texnika instituti o‘qituvchisi
nomonjonovanargiza7@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20458968

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohatlar haqida bayon qilingan. Andijon viloyatida kichik biznesni tarmoq va sohalar bo‘yicha rivojlanish tendensiyalari, yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyatlari o‘ganilib tahlil qilingan hamda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: kichik biznes, iqtisodiy mezon, iqtisodiy o‘sish, hududiy rivojlanish, eksport salohiyati, iqtisodiy barqarorlik, kreditlar va xorijiy investitsiyalar.

Аннотация: В данной статье изложены реформы, осуществляемые в настоящее время по развитию малого бизнеса. Проанализированы тенденции развития малого бизнеса в Андижанская область по отраслям и сферам, а также изучена экономическая деятельность вновь созданных малых предприятий и микрофирм. На основе проведённого исследования разработаны научные предложения и практические рекомендации.
Ключевые слова: малый бизнес, экономический критерий, экономический рост, территориальное развитие, экспортный потенциал, экономическая стабильность, кредиты и иностранные инвестиции.

Annotation. This article presents the reforms currently being implemented to support the development of small business. It analyzes trends in small business development in the Andijan region by sectors and areas of activity, and examines the economic performance of newly established small enterprises and microfirms. Based on the conducted research, scientific proposals and practical recommendations have been developed.
Keywords: small business, economic criteria, economic growth, labor resources, export potential, economic stability, loans and foreign investment.

Kirish. Kichik biznesni rivojlantirish hamda uning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, eng ustuvor makroiqtisodiy omillardan biridir. Kichik biznesning rivojlanishi mamlakatda YaIM, viloyatda YaHM hajmining ortib borayotganligi bilan o‘zini namoyon qilish bilan bir qatorda, iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalarida ishlab chiqarish hajmini ortishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan, Andijon viloyatida 2022 — 2026-yillarda yalpi hududiy mahsulot va sanoat mahsulotlari hajmini 1,4 baravarga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravarga, xizmatlar hajmini 3,0 baravarga hamda qurilish ishlari hajmini 1,4 baravarga oshirish bo‘yicha vazifalar belgalab berildi [1]. Bu vazifalarni amalga oshirishda viloyatda tizimli ishlar tashkil etilib, chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. Kichik biznes tarmoq va hududlar bo‘yicha iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda uning rivojlanishini belgilovchi ko‘rsatkichlar asosiy iqtisodiy mezon hisoblanadi. Shu o‘rinda Andijon viloyatda kichik biznesning tarmoq va sohalari bo‘yicha ulushini 1-jadval orqali ko‘rib chiqsak.

1-jadval ma’lumotlarida Andijon viloyatda kichik biznesning tarmoq va sohalari bo‘yicha ulushini ko‘radigan bo‘lsak, eng kichik qiymatlar sanoatda, eng katta qiymatlar esa qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida aks etmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyatida kichik biznesga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalariga to‘g‘ri kelmoqda. Biroq bu yerda ham yirik korxonalarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning hajmi yuqoriligi sabab, kichik biznes sohasidagi ulushiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Viloyat miqyosida yalpi investitsiya hajmi eng yuqori ulushini sanoat sohasi egallab tursada, yuqorida ta’kidlaganimizdek uning ishlab chiqarish hajmi ulushi eng past ko‘rsatkichni ko‘rsatmoqda. Bu viloyatda sanoat sohasi bo‘yicha kapital sig‘imkorlik yuqori, ammo mazkur manbadan foydalanish darajasi past ekanligini ko‘rsatmoqda.

1-jadval

Anijon viloyati bo‘yicha iqtisodiyot soha va tarmoqlaridagi kichik biznesning ulushi (foizda)

№	**Soha va tarmoqlar**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
1	YaHM	73,1	69,7	70,1	72,2	69,5	66,0	69,5
2	Sanoat	21,2	18,0	21,4	27,2	22,4	22,0	29,5
3	Qishloq,o‘rmon va baliq xo‘jaligi	99,5	99,1	97,8	96,9	96,5	96,1	96,9
4	Investitsiyalar	53,8	67,3	63,5	54,8	59,0	72,0	74,1
5	Qurilish ishlari	96,6	94,9	93,3	95,2	93,8	96,0	92,8
6	Savdo	88,8	86,8	88,5	90,1	93,9	93,8	92,4
7	Jami xizmatlar	71,7	69,0	67,7	66,8	66,0	65,3	75.6
8	Yuk tashish	93,9	94,8	91,4	93,8	94,5	95,2	95

9	Yo‘lovchi tashish	96,4	95,8	96,6	97,4	96,6	98	97,2
10	Bandlik	81,7	82,1	80,8	80,7	80,2	81,2	82
11	Eksport	75,3	58,9	44,5	36,5	38,3	29,4	36,3
12	Import	16,7	15,2	12,9	13,1	11,0	16,0	18,4

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Andijon viloyatida kichik biznesning eksportdagi ulushi, 2018-yilda 75,3 foizdan, 2024-yilga kelib 36,3 foizga tushganligini, tadqiqot davri davomida 2,1 barobarga pasayib ketganligini ko‘rishimiz mumkin. Kichik biznesda eksport ulushining pasayishiga, viloyatdagi yirik sanoat korxonalarining eksport xajmi ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun viloyatda kichik bizesda sanoat tarmog‘iga alohida e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, bugungi kunda viloyatda sanoat tarmog‘ida kichik biznesni ulushini oshirish uchun yetarlicha salohiyat mavjud. Hududda xom ashyo hamda kapital resurslari, ayniqsa mehnat resurslari yetarli darajada. Ushbu resurslardan maqsadli foydalana oladigan tadbirkorlik salohiyatini oshirish hamda tarmoqni diversifikatsiyalash zarur. Bu o‘z navbatida viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining yanada ortishi va eksport salohiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Viloyatda kichik biznesning eng yuqori ulushi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga to‘g‘ri kelishining asosiy sababi, viloyatda qulay ob-havo sharoiti, ekin maydonlarining kattaligi va tuproq unumdorligining yaxshiligi hamda aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ancha tajribaga ega ekanligidir [2]. Ammo, bugungi kunda viloyatda aholi sonining o‘sib borayotganligi birinchi navbatda, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘sishiga sabab bo‘lmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2023-yilda respublika bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida Andijon viloyatining ulushi 10,2 foizni tashkil etdi. 2023-yilning yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 96,7 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarga, 2,5 foizi o‘rmon xo‘jaligiga, 0,8 foizi baliqchilik xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi [3]. Bu ko‘rsatkichlar 2024-yilga kelib qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmiga nisbatan 0,8 foizga ortgan. Ammo viloyat miqyosida tarmoqlarning YaHM dagi ulushiga e’tibor qartadigan bo‘lsak qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yetakchi tarmoqlardan biri bo‘lib qolmoqda .

Fikrimizcha, viloyatda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining kichik biznesdagi ulushi yuqoriligi salbiy holat emas. Biroq, viloyatda yildan-yilga demografik o‘sish sur’atining ortib borishi bu aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarining ham ortib borishi demakdir. Shuning uchun, viloyatimizda tarmoqning YaHM dagi ulushini orttirishga e’tibor qaratishimiz zarur. Shu bilan birga, Andijon viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasiga ham alohida e’tibor qaratish zarur, sababi kichik biznesda ushbu soha tarkibiga kiruvchi

yo‘lovchi va yuk tashish, chakana va ulgurji savdo xizmatlari yetakchi ulushga ega. Bundan tashqari bugungi kunda viloyatda kichik biznesda xizmat ko‘rsatish sohasi tarkibiga kiruvchi turizm ham o‘zining alohida ulushiga ega bo‘lib bormoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra, tadqiqot davrida Andijon viloyati bo‘yicha iqtisodiy soha va tarmoqlardagi kichik biznesning ulushi ijobiy holatda.

Fikrimizcha, viloyatda kichik biznesning sanoat, xizmat ko‘rsatish, investitsiyalar hamda eksport sohalariga alohida e’tibor qaratish, ularning sohadagi ulushini yanada oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun birinchi navbatda viloyatda yangi tashkil etilayotgan kichik biznes subyektlariga ham alohida e’tibor qaratish zarurdir.

Bugungi kunda, kichik biznes subyektlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasida ularning iqtisodiyotdagi o‘rni ortib bormoqda. Ular tomonidan yaratilayotgan qo‘shimcha qiymat hajmi ortib, iqtisodiyotni rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu o‘rinda, Andijon viloyatida yangi tashkil etilayotgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1-rasm orqali tanishib o‘tsak.



1- rasm. Andijon viloyatida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi (foizda)

Andijon viloyatida 2018-2024-yillar davomida jami 38271 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilgan. Ushbu yangi tashkil etilgan xo‘jalik subyektlarining sohalar kesimida o‘rtacha ulushi, savdo sohasida 35,8 foizni, sanoat sohasida 25,8 foizni, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 9,5 foizni, qurilish sohasida 7,3 foizni va boshqa soha va tarmoqlarda 20,4 foizni ni tashkil etgan. Tadqiqot davrida, viloyatda tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining eng yuqori ulushi savdo sohasiga, eng past ulushi esa qurilish sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bunga sabab, Andijon viloyatida tadbirkorlarning savdo sohasiga bo‘lgan qiziqishlarining yuqoriligi hamda qulayligi deb aytishimiz mumkin. Qurilish sohasida yangi tashkil qilinayotgan kichik biznes subyektlarining past ulushga ega bo‘lishiga sabab esa, ushbu soha bo‘yicha viloyatda ba’zi muammolarning mavjudligidir. Jumladan, kichik biznesda qurilish sohasida yetuk va malakali mutaxassislarning kamligi va qurilish tashkilotlari o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan tender tanlovlarida ko‘pincha yirik korxonalarning g‘oliblikni qo‘lga kiritishi sabab bo‘lmoqda.

Fikrimizcha, kichik biznes qurilish sohasini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratgan holda, ushbu soha bo‘yicha malakali mutaxassislarni yetishtirib chiqarish hamda ushbu sohani davlat tomonidan alohida qo‘llab-quvvatlash zarur.

Bugungi kunda Andijon viloyatida avtomobilsozlik sohasida 12 ta yirik va 160 dan ortiq mahalliy kichik korxonalar mavjud bo‘lib, ushbu soha viloyatda yetakchilik qilmoqda

[4]. Viloyatda yengil sanoat, qurilish mahsulotlari, mebel, charm-poyabzal mahsulotlari hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlab chiqarishda ham sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘sib bormoqda. Bundan tashqari Andijon viloyatida yuqori texnologiyali va zamonaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilayotganligi, qo‘shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga, eksport salohiyatini oshirishga, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hudud aholisining farovonligini oshirishga, bir so‘z bilan aytganda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini yanada oshirishga hizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda Andijon viloyati sanoat tarmoqlari ichida to‘qimachilik sanoati o‘zining alohida o‘rniga ega. Shu sababli ushbu sohada eksport salohiyatini yanada yaxshilash, istiqboldagi rejalarni amalga oshirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir.

Andijon viloyatida yirik avtosanoat korxonalari mavjudligini inobatga olgan holda, avtomobil butlovchi qismlari ishlab chiqaruvchi hamda avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatuvchi kichik biznes subyektlari faoliyatiga ham alohida ahamiyat qaratish lozim.

Bundan tashqari hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlovchi va ularni qayta ishlovchi kichik korxonalar salmog‘ini oshirish zarur. Andijon viloyatining aksariyat hududlari qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan, jumladan meva va sabzavot mahsulotlari yetishtirishga qulay va unumdorligi jihatidan ham yuqori hisoblanadi. Shu bois, viloyatda meva va sabzavot yetishtirish va ularni qayta ishlash sanoatiga, hamda uni eksport salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Buning uchun ushbu sohalarga kreditlar va xorijiy investitsiyalar jalb qilishni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.04.2022-yildagi “2022-2026-yillarda Andijon viloyati xududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 204-son qarori.
2. Жураханов Музаффархон Эскандарович. «Роль малого бизнеса в национальной экономике и пути его развития» "Collquium-journal" #34 (121) 10.12.2021, ISSN 2520-6990 https://cyberleninka.ru/article/n/rol-malogo-biznesa-v-natsionalnoy-ekonomike-i-puti-ego-razvitie/viewer
3. Andijon viloyatining statistik axborotnomasi-2023 yil
4. https://president.uz/uz/lists/view/7036